

JAMIYAT YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA O'QUVCHI YOSHLAR MUSIQIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING OB'EKTIV VA SUB'EKTIV OMILLARI

M.Abdusalimova ¹

¹ *Farg'ona davlat universiteti Magistr*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.05.2025

Revised: 13.05.2025

Accepted: 14.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Askiya san'ati,
Pedagogik omillar, O'zbek
madaniyati, Ta'lim
jarayoni, Xalq ijodi.*

Mazkur maqola O'zbek milliy askiya san'ati va uning pedagogik ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda askiya san'ati tarixi, uning xalq madaniyatidagi o'rni, shuningdek, zamonaviy pedagogik jarayonlarga ta'siri batafsil tahlil qilingan. Askiya san'ati nafaqat o'ziga xos ijodiy yo'nalish, balki uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Maqola orqali askiya san'ati pedagogik jarayonlar va o'quvchilarni tarbiyalashda qanday rol o'ynashini aniqlashga harakat qilingan.

KIRISH. Allomalarimiz qoldirgan milliy musiqiy merosimizda musiqiy dunyoqarashga alohida e'tibor berilgan bo'lib, undadagi fikrlar o'zining naqadar sofliqi, o'ta ta'sirchanligi bilan insonni hayratda qoldiradi. Zero, "...shunday ulkan ma'naviy boylikning shakllanishi va taqqiyotida, bu umrboqiy san'atning bizgacha yetib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan shoir va mutafakkirlar, bastakor va sozandalar, buyuk hofizlarning..."²⁷ o'rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Demak, musiqiy dunyoqarash jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Chunki musiqa qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

²⁷ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 3-том. 2019. –Б. 102

Musika insonlarni ezguliklar olamiga yetaklovchi ma'naviy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham musiqiy dunyoqarash inson hayotida hamisha o'z o'rnini, o'z vazifasiga ega, chunki u ermakka to'qilmagan, havasga aytilmagan, bekorchilikdan eshitilmagan.

Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Toki odamzod o'zini qurshab turgan tashqi olamida, o'zi yashayotgan jamiyatida, o'zi bilan muloqotda bo'layotgan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilinayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go'zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma'naviy barkamol inson darajasiga ko'tarila olmaydi. Musika san'ati ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir²⁸. Demak, jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida yoshlarning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish va uning ijtimoiy-falsafiy tahlilini qilishda alohida e'tibor qaratish zarur.

O'quvchi-yoshlarda musiqiy dunyoqarashini shakllantirishda, musiqiy merosdan oqilona foydalanish ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. "Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarning birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik idealar ruhida tarbiyalashda musika san'atining o'rnini va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi"²⁹. chunki, musika insonning uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan ijtimoiy fikri, g'oyalari, hissiyoti va dunyoqarashidir.

Yoshlarda musiqiy dunyoqarashni shakllantirish orqali ular qalbini forig'lash, huzurbaxshlik, tarbiyaviylik tamoyillarini ham singdirish mumkin. Chunki haqiqiy musika ta'limi yuksak estetik did bilan ijro etilgandagina g'uborlardan forig'lash funksiyasini amalga oshirish mumkin bo'ladi. Shu bois musika ta'limi mutaxassislarini tayyorlashda ularning musika nazariyasi va tarixi, musiqiy asarlarning yaralishi va musiqashunos olimlarning tahlillarini o'rganib borishlari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, musiqiy dunyoqarash estetik tarbiya jarayonlarida ishtirok etar ekan, uning ma'naviy hodisa sifatidagi mohiyati va ahamiyati yanada bo'rttiribroq ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra musiqaga ham estetik, ham axloqiy izlanishlar obyekti sifatida murojaat qilinishi o'z navbatida, axloq bilan nafosat, badiiylik bilan estetikaning o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bois musika san'atidan yoshlar axloqini rivojlantirishda oqilona foydalanish kerak. "Chunki san'at taraqqiyoti va uning

²⁸ Қамбаров А.А., Маннопов С.М., Нажметдинова М.М. Ўзбек санъати тарихи. (Ўқув-услубий қўлланма) – Фарғона нашриёти. 2021. –Б. 68-69

²⁹ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 3-том. 2019. –Б. 102

jamiyat hayotidagi o'zni badiiy ijodkorlikning shart-sharoitlari, uning qadriyatlarini tarqatish va o'zlashtirish jarayonlari bilan bo'lganidek, kishilarning estetik kamol topganlik darajasi bilan ham uzviy bog'liqdir"³⁰. Demak, yoshlarda xushsozlik, xushovozlik va go'zallikni anglay olish, unga o'z munosabatini bildirishi ularning musiqiy dunyoqarashining asosi hisoblanadi.

Musiqiy dunyoqarashning ijtimoiy mohiyati, ma'naviy ahamiyati hamda shaxs va jamiyat kamolotidagi axloqiy-estetik mazmuni bilan bog'liq masalalarni tahlil qilgan holda musiqaning badiiy-estetik idealni shakllantirish, shuningdek, musiqaning ijtimoiy-ma'naviy borliqdagi go'zallini uyg'unlashtiruvchi, estetik qadriyatlarni qaror toptiruvchi omil sifatidagi mazmuniga e'tibor qaratiladi.

"XX asr o'zbek musiqa san'atida keskin yangilanishlar davri bo'ldi, "noan'anaviy" bastakorlik ijodiyoti hamda yangi kontsert shakllari yuzaga keldi"³¹. shu munosabat bilan musiqiy madaniyatda ham "estrada" tushunchasi o'zbek milliy musiqa san'ati tarkibidan joy oldi. Shu bois ham yoshlarda musiqiy dunyoqarashni rivojlantirishda milliy musiqiy merosni asrab-avaylash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni o'rganish va bu orqali o'quvchi-yoshlar musiqiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin bo'ladi.

O'quvchi-yoshlarda musiqiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida ularning estetik didni tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni musiqiy dunyoqarashni shakllantirishda yangicha yondashuvlar asosida badiiy didni tarbiyalashning ta'sirchan vositadir. Yoshlarning har bir musiqiy asarni diqqat va e'tibor bilan tinglashi, uning ifoda vositalari va mazmunini to'la idrok etishga o'rgatish zarurki, bu ularda odat tusiga aylanadi va ularning musiqiy va estetik didini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Zero, "Musiqaning hayotda tutgan o'zni beqiyos. Ona allasi bilan mehr-muhabbat, ezgulik, muruvvat tuyg'ulari qalbimizga joylandi. Ayniqsa, milliy qadriyat bo'lgan raqs, folklor, estrada san'atida ma'naviy meros asrab-avaylab kelinmoqda"³². Mana shu jarayonning milliy asoslarini asl holicha saqlab qolish, yoshlarda milliy musiqiy meros va musiqa san'atining vazifalariga doir qarashlarini tarbiyalashda o'quvchi-yoshlarda musiqiy dunyoqarashni shakllantirish yo'lidagi zalvorli odimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

³⁰ Арзиматова И.М. Эстетик маданият. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти. 2007. –Б. 23

³¹ Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Фан. 1974. –Б. 221

³² Панжиев Қ, Азизов Р. Эстрада қўшиқчилиги ёшларни тарбиялашнинг маънавий воситаси сифатида. Замонавий таълим. 2018. №7. –Б. 12.

O'zbek milliy musiqasi o'zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari uning mavzusi va g'oyaviy mazmunida aks etadi. Milliy musiqa yuksak mahoratli badiiy tizim. Unda xalqning badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan.

Milliy musiqaning har bir namunasi asrlar davomida ko'plab iste'dodli va yetuk sozanda va xonandalar tomonidan nihoyatda sayqallangan, yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan. An'anaviy ijrochilikning o'ziga xos nuqtayi nazaridan O'zbekistonda turli mahalliy ijrochilik maktablari tarixiy rivojlanish sharoitida alohida o'rin tutadi. An'anaviy san'atimizni Yusufjon qiziq Shakarjonov shunday ta'riflagan: "Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shoxlari Farg'onadir".

Milliy musiqamizning tarixini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchisi – XX asrgacha bosib o'tilgan yo'l, og'zaki an'anada saqlanib rivojlanishi, har biri o'z nomiga va uslubiga ega bo'lishi. IX asrdan boshlab "musiqiy risolalar"da Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o'rganilib kelingan. Ularning asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta'lim masalalari hamda ular negizida kuy, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilgan. Shu yo'lda maqom asoslariga ham nisbatan yagona ilmiy an'ana sifatidagi qarashlar gavdalanadi.

Musiqiy dunyoqarash inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviy olamini butunicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit obrazini yarata oladi. Shuningdek, musiqiy dunyoqarashning asosiy mazmuni yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etishida, yoshlarning estetik didini yuksaltirishda o'z aksini topadi.

"Inson estetik kamoloti nafaqat estetik tuyg'ular, ehtiyojlar, shu bilan birga, uning barcha shaxsiy fazilatlari bilan birga yaxlit holda bog'lanib ketadi. Shuning uchun shaxsni kamolotga olib keluvchi estetik omillar, bir tomondan, uning strukturasini tashkil etuvchi jamiki elementlar, boshqa tomondan, estetik kamolotining o'ziga xosligi va ularning shakllanishida mehnatning ta'siri bilan birga qarab chiqilmog'i lozim"³³.

Ikkinchisi – XX asrdan boshlab milliy musiqa namunalari nota yozuvlariga bitilgan, sadolari ohangrabo tasmalariga tushirilgan, yangi ta'lim tizimida o'zlashtirilgan, havaskor

³³ Арзиматова И.М. Эстетик маданият ва маънавий камолот. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ. 2009. –Б.61

va professional ansambllar va ijrochilar tomonidan ijro etilib, jonli an'ana tarzida yashab kelmoqda. Ashula va yallalar, dostonlar va katta ashulalar, cholg'u kuylari va turkumlar, maqomlar zamonaviy nota yozuvlarida muhrlanib, abadiy yashashga hozirlandi. Milliy musiqamizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi.

Mamlakatimizda musiqa madaniyatini rivojlantirishning maqsadli yo'naltirilganligini yoshlar musiqiy didi va tafakkurini yuksaltishda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki unda badiiy ijod, xususan, musiqa san'ati vositasida yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Zero, musiqa madaniyat ijtimoiy taraqqiyotda insonning faqat xursandchilik kunlarida emas, balki boshqa faoliyatlarida ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad beradi, hayotga, yashashga, ijodga va go'zallikdan bahramand bo'lishga chorlaydi. Bundan tashqari, haqiqiy san'at asarlari, xususan, go'zal musiqa umumbashariy tilga ega bo'lib, ular barcha xalq, elat va millatlarga tarjimonsiz estetik zavq bag'ishlash xususiyatiga ega. Shunday ekan, yoshlarning hayotiy istaklarini kuchaytirish, o'qishga, kasbiy faoliyatga ham unga kuch-quvvat, ruhiy madad berishiga urinish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Buning uchun tarbiya tizimida yoshlar tinglashi taklif etilayotgan kuy-qo'shiqlardan, ustoz san'atkor va bastakorlar ijodi bilan bog'liq adabiyotlardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish zarur.

Shuningdek, musiqa madaniyati yo'nalishida faoliyat olib borayotgan va ilmiy izlanishlar qilayotgan yosh tadqiqotchi-ijodkorlar, madaniyatshunoslar va san'atkorlarning mahorati hamda ularning musiqa madaniyatining estetik mohiyatiga doir yondashuvlarini o'z ichiga olgan uslubiy ko'rsatmalarni tayyorlash ishlarini yanada jonlantirish zarur. Chunki, "ommaviy madaniyat" tahdidlariga qarshi kurashning o'quv-uslubiy asoslarini mustahkamlash orqali yoshlarda musiqa madaniyatini, estetik did va estetik madaniyat mezonlarini yuksaltirish muhim nazariy asoslar yaratilishini taqozo etadi. Demak, "shaxsning estetik madaniyati go'zallik qonunlari asosida tabiat, ijtimoiy hayot hamda o'zining mohiyatli kuchlarini har tomonlama ifoda etadigan his-tuyg'u, idrok va qayta yaratuvchanlik qobiliyatlari majmuidir"³⁴ deyish mumkin.

Jamiyatimizning ma'naviy yuksalishi jarayonlarida yoshlar estetik dunyoqarashini shakllantirishga doir amaliy yo'riqnomalar majmuasini yaratish bunda o'zbek musiqa san'atining estetik xususiyatlarini inobatga olgan holda musiqiy estetik faoliyatda ijtimoiy-ma'naviy omillarning o'rniga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Mana shu yondashuvni yoshlarning estetik dunyoqarashi, madaniyati va didini yuksaltirishda va milliy musiqaning estetik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari to'g'risida dunyoqarashini shakllantirish talab etiladi.

³⁴ Арзиматова И.М. Шахс камолоти: эстетик тарбия ва тумуш тарзи эстетикаси. —Фарғона: 2016. —Б. 42

Bugungi kun musiqa madaniyati va san'ati dunyoda sodir bo'layotgan hamma jarayonlarning aksi, insonning va insoniyatning turli tashqi ta'sirlardan, ba'zan o'z-o'zidan ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy va jismoniy taraflardan ozod bo'lishda yagona yo'l hamda inson madaniyatining tadrijiy rivojini beruvchi imkoniyatidir. Yangi musiqa madaniyati yangi san'at kabi ma'lum bir vaqtda paydo bo'lmagan, u avvalgilarning davomidir. Lekin ba'zi bir hollarda musiqa madaniyatida ayrim estrada namunalari yoshlarning axloqiy olamiga zo'rlik bilan ta'sir ko'rsatishga urinmoqda. Ular asosan G'arb musiqasi namunalari yoki ularga taqlidlardir. Hozirgi davr ultra musiqa madaniyatining ayrim turlari ("bit", "rok", "re", "o") yoshlarni ma'naviy qashshoqlikka, tubanlikka boshlamoqda. Bunday musiqa madaniyatining ba'zi "namunalari" bizga ham yetib kelgan. G'arb musiqa madaniyatining shiddat bilan yoshlarimiz hayotiga va ongiga kirib kelishini garchand yangilik sifatida qabul qilsak ham, ularning fe'l-atvorida jiddiy burilish yasalayotganligi bor gapdir. G'arb musiqa madaniyatining yoshlar tarbiyasi, yashash tarziga mos kelayotganini inkor eta olmaymiz. Ularning ta'bi, didi shuni talab qilayapti. Lekin jazavaga tortuvchi, bir xil so'zlarni ko'p takrorlayveradigan, bir xil ritmga asoslangan ehtirosli musiqani ko'p tinglaydigan yoshlar, shubhasiz, milliylikdan yiroqlashadilar. Ularning ong-u shuuriga shovqin-suronli musiqa shu darajada o'rnashadi-ki, natijada, yurish-turishi ham o'zgara boshlaydi. Shu boisdan yoshlarda san'at orqali estetik didni, insonning ma'naviy dunyosini boyituvchi haqiqiy go'zal musiqa madaniyatiga muhabbatni tarbiyalash, yangi inson – mustaqil davlat quruvchisini kamol toptirish uchun kurash jamiyatimizning muhim vazifasidir. Chunki kishilar ongi va ma'naviy olamiga musiqa san'atining ta'sir kuchi nihoyatda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Sultonova M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: O'qituvchi, 2006.
3. G'aniyeva N. Askiya san'ati va uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati. – T.: Fan, 2011.
4. Orinboyev A. Askiya san'atining shakllanishi va taraqqiyoti. – T.: Akademnashr, 2017.
5. Nuritdinov A. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – T.: TDPU, 2012.
6. Quronov D. O'zbek xalq og'zaki ijodida kulgi janrlari. – T.: Mumtoz so'z, 2004.
7. Farobiy. Musiqa ilmi haqida kitob. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
8. Toshxo'jayev B. O'zbek xalq ijodi va uni o'rgatish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2009.
9. Alimov S. Ma'naviyat asoslari. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. UNESCO. Intangible Cultural Heritage: The Art of Askiya. unesco.org